

G'ARB ADABIY-ESTETIK TAFAKKURIDA INSON KONSEPSIYASI TALQINI

Sarvinoz Narzulloyevna Oripova,

*Alfraganus University is non-governmental higher education institution,
a senior teacher of the department Foreign Philology*

sarvinozoripova54@gmail.com

Orcid: 0009-0001-9000-0682

Annotasiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotiga ta'sir ko'rsatgan Joys va Kafkalarining ijodiy konseptual qarashlari, tutimlari, uslubiga oydinlik kiritildi. Natijada, inson shaxsining ulug'vor maqsadlarda qadam tashlashi, yolg'izlikdan xalos bo'luvchi usullar sintezi tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: uslub, konsepsiya, ifoda, poetika, shakl, pafos, estetika, mantiq.

Аннотация. В данной статье рассматриваются творческие концептуальные взгляды, установки и стиль Джойса и Кафки, оказавших влияние на узбекскую литературу. В результате проанализирован синтез шагов человеческой личности к высоким целям и методов избавления от одиночества.

Ключевые слова: стиль, концепция, выражение, поэтика, форма, пафос, эстетика, логика.

Abstract. This article sheds light on the creative conceptual views, attitudes, and style of Joyce and Kafka, who influenced Uzbek literature. As a result, the synthesis of the human personality's steps towards lofty goals and methods of getting rid of loneliness was analyzed.

Keywords: style, concept, expression, poetics, form, pathos, aesthetics, logic.

Kirish. Irlandiyadan vaqtida ko'ngli to'lmay chiqib ketgan jeyms Joys o'z vatanidagi odamlarni "yovvoyi cho'chqaga" o'xshatadi. Albatta, bu yerda amaldorlar ustidan o'tkir kinoyaviy yondashuv manerasi yaqol seziladi. Aslida, adib o'z xalqini yaxshi ko'radi. Ichki muhabbat, tashqi ziddiyatlar, nafrat olovini purkaydi. Joys ana shu tafakkur oldida ojizona hayot kechiradi. Yo'qsillik, mutelik va qullik iskanjasidan bezgan Joys butun Yevropa bo'ylab sarson-sargardonlikda umr kechiradi. Yo'qchilik azobidan zada bo'lgan Joys Fransiya, Germaniya va shunga o'xshagan ilg'or demokratik davlatlarda umr o'tkazadi. Safar taassurotlari Joysni ruhan chiniqtiradi. Bu haqda N.Eshonqul: "Beqo'nimlik Jeymnsning o'qishiga yomon ta'sir qilsa-da, iste'dodli va tirishqoq bola fanlarni tezda o'zlashtirib oldi. Ayniqsa, uning adabiyotga qiziqishi va salohiyati ayricha edi. Ertaklar va qadim yunon miflari ta'sirida o'sayotgan Joysga ona shahri o'sha asotirlardagi dunyoning odamzod taqdiri hal qilinadigan sirli maskanidek tuyulardi. Yashash uchun oilaning Dublin bo'ylab sang'ib yurishlari keyinchalik yozuvchiga aylangan Jeymsga insoniyatning bir paytlar ona zaminda hayot-mamot uchun ulug' ko'chishlarini eslatuvchi timsol – Blunning uyiga qaytish sahnalarini yaratishiga turtki bergan bo'lsa ajab emas. Adib asarlarida Dublin yer yuziga, shahar aholisi bani bashar timsoliga, yoshlikning qashshoqlik va sargardonlikka mahkum hayoti esa Odisseyning uyga qaytish uchun boshidan kechirgan sarguzashtlarini ramzlashtirgan Blunning uyga qaytish vaqtidagi ong-osti tasvirlariga aylandi. Umuman olganda, yosh Joysning qashshoqlik, sargardonlikda kechgan bolalik taassurotlari keyinchalik butun boshli uchta romaniga yetarli xomashyo bera oldi va Dublin barcha asarlarda ko'hna charxi dunning

timsoli sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Joys adabiy faoliyat bilan shug‘ullana boshlagach bolaligida qo‘rqinchli va vahimali tuyulgan ona shahrini butun insoniyatning botiniy tarixini aks ettirish mumkin bo‘lgan makonga aylantirishni maqsad qildi”.

Adabiyotlar tahlili. O‘zini qurshab turgan olam manzarasi zamirida Joysning hissiy to‘lg‘onishlari bilan, idrok va mashaqat yaxlitligi qabarib ko‘rinadi. Mashaqqatli hayot, yo‘qsillik Joysni ikki yuzdan ziyod joyda ko‘chib yurib umr kechirishga yetaklaydi. Joys juda katta insoniyatga muhabbati bilan ulg‘aydi. U ichki muhabbatini nafrat bilan emas, miflar, kinoyalar, asotirlar bilan yuzaga chiqara oldi. Demak, hikoyadan romangacha bo‘lgan oraliqda Joysning tafakkur tarzi umuman ranginlashdi.

Frans Kafka iztiroblari va yolg‘izligi. Otasidan ko‘ngli to‘lmagan, erkni, ozodlikni bir umr qo‘msab yashagan Kafka ham yolg‘izlik girdobida umr kechirdi. Yozuvchining “”Qishloq o‘qituvchisi”, “Ochlik ustasi”, “Kichkina ayol”, “Kovak”, “Imtihon”, “Evrilish” kabi o‘nlab hikoyalar davrning achchiq manzarasi haqida to‘laligicha tasavvur qilishimiz imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-adabiy tahlil, biografik yondashuv hamda matnshunoslik metodlaridan foydalanildi. G‘arb adabiy-estetik tafakkuri vakillari bo‘lgan Joys va Kafka ijodi o‘zbek nasri bilan qiyosiy o‘rganilib, ularning konseptual qarashlari va badiiy uslubi tahlil qilindi. Shuningdek, badiiy matnlarning semantik va poetik xususiyatlarini aniqlash orqali inson konsepsiyasining ifoda shakllari ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. Biografik metod va shu yo‘sinda hikoyalar yozish Kafka tafakkurini yanada tiniqlashtirdi:

“Uni juda ko‘p odamlar tanirdi, chunki u butun vujudi haqiqatga to‘lib-toshgan va dunyodan hadiksiragancha o‘z yo‘lida odimlardi... o‘zi tortinchoq, sertashvish, mehribon va saxiy bo‘lsa-da, ammo yozgan kitoblari shafqatsiz va og‘riqli edi. u himoyasiz insonni tilka-pora va yakson qilayotgan ko‘z ilg‘amas maxluqlarga to‘la dunyoni ko‘rib turardi. U yashashda davom etishi uchun nihoyatda uzoqni ko‘ra oladigan va nihoyatda dono kishi edi. u kurashish uchun o‘ta ojiz, ajoyib va olijanob zotlar zaif bo‘ladigan darajada ojiz edi. u shu qadar mehri va vijdonli ijodkor va inson ediki, hatto qulog‘i tom bitganlar o‘zlarini xavsizlikdamiz deb yanglishgan joylarda ham maxluqlar tahdidini eshita olardi” . Binobarin, Frans Kafka ijodining qariyb 90 foizi tushunlikda va yolg‘izlikda o‘ziga yo‘l qidirayotgan odam xarakterini gavdalantiradi yoki yodimizga soladi. Kafka muhabbati nafratga o‘tib turishi bir lahzada sodir bo‘ladi. U o‘z qarashlari bilan yolg‘iz olishni xush ko‘rarkan, dunyoda yovuz jonzot – insondir degan xulosaga keladi.

Prof. B.Karimov qayd etishicha: “Ijodkor qalami ostidan chiqqan haqiqiy san‘at namunasi – mo‘jizakor badiiy asar matnidir. Matn yo‘q joyda tushunish va tushuntirish, talqin va tahlil xususida gap bo‘lishi mumkin emas. matn ob‘ektiv olamning sub‘ektiv in‘ikosi, muayyan bir g‘oya, fikr va tushunchalar ifodasidir. Badiiy asar matni – talqin ob‘ekti. Adabiyotshunos va munaqqid shu manbani talqin etadi. Har qanday badiiy asar o‘z

sub'ekti (yozuvchisi, ijodkoriga ega bo'lganidek, har qanday ilmiy tadqiqotning ham o'z sub'ekti (yozuvchi-tadqiqotchisi) bo'ladi. Demak, ikkilamchi bir ob'ekt yuzaga keladi. Qolaversa, ijtimoiy fan sohasining eng muhim xususiyati ham shu, ya'ni g'oyalar haqida g'oyalar, so'zlar haqida so'zlar, matnlar to'g'risida matnlar yoziladi". Darhaqiqat, G'arb adabiy-badiiy estetik tafakkurining zamonaviy o'zbek hikoyachiligiga ta'siri XX asrning 30-yillarida A.Qodiriy, Cho'lpon yoki A.Qahhor hikoyalarida ko'rinish bergan bo'lsa-da, 90-yillar adog'ida milliy mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin tom ma'nodagi rivojlanish pallasiga qadam qo'ydi. Mana shu konsepsiya Shodiqul Hamroning "Suratdagi ayol", Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", Ulug'bek Hamdamning "Lola", "Pillapoya", Luqmon Bo'rixonning "Sut sotuvchi bola", Abduqayum Yo'ldoshevning "Puankare" hikoyalarida yanada alohida mavqe kasb etishiga yo'l ochdi. Bular o'z navbatida inson shaxsiga, uning orzulariga, shafqat va nafratiga qulay so'z topish ilinjida sistembutunlikda olib borilganini ko'ramiz. Ayni chog'da, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga, ramzlarga, metaforalarga bezash borasida ijodkor ko'plab G'arb adabiy-estetikasidan imkon qadar sintezlagani bejiz emas!

Frans Kafka ham ana shu oltin o'rtalikda ko'plab qalamkashlarning mukammal asarlar yaratishiga hissa qo'shgan haqqirost. Chunki Joys yoki Moem, Kafka yoki Kamyular avlodi ana shu muammoni katta planda olib chiqa oldi. Bular bir-biriga ta'sir eta oldi. Bir-birini shakllantirishga yo'l ochdi, ikkinchi jahon urushidan keyin Jorj Oruellar avlodi yuzaga keldi. Mantiq, estetik tanlov, ijodkor qiyofasini belgilab berishi mumkin qadar murakkablashdi.

Italiyalik adabiyotshunos olim Torkvato Tassoning "Qahramonlik poemasi haqida mulohazalar" (1594) nomli risolasida quyidagi masalalarga alohida urg'u beradi: "ijodkor qarshisida uchta asosiy vazifa ko'ndalang bo'ladi: 1) material tanlash; 2) shu materialni sig'dira oladigan shakl tanlash; 3) materialga sayqal berish, uni bezash. Shundan kelib chiqib, Tasso o'z kitobida qahramonlik poemasi materiali, fabulasi (shakli) va uslub masalalarini diqqat markaziga qo'yadi. Binobarin, Torkvato Tassoning mulohazalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Frans Kafka badiiyati ham bundan mustasno emas. Negaki, zamonaviy badiiy adabiyot o'z-o'zidan shakllanib, shu holatga kelib qolgan adabiyot emas. zinhor yozuvchilar bir-biridan nusxa ko'chirishmaydi. Ular bir-biriga mantiqiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, xolos!

"Gi de Mopassan, Chexov, Onore de Balzak, Prosper Merime, Puelo Koelo, Uedi Akinari kabi jahonning sohir so'z san'atkorlari tomonidan yaratilgan asarlarda hajmning qisqa va lo'ndaligi hikoyaning bosh mezonlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek adabiy jarayonidagi Abdulla Qahhor hikoyalarida ham shu mezon yetakchilik qiladi. Xayriddin Sultonov, Isajon Sulton asarlarida har xil hajmda hikoyalar mavjudligini kuzatish mumkin. Nazar Eshonqul qalamiga mansub hikoyalarda esa hajmdan ko'ra tasvirning quyuqligi, rang-barangligi, ifodaning chuqur hissiy hissiy bo'yoqlarda berilishi asar psixologizmi bilan hamohanglik hosil qilganligini kuzatamiz". Keltirilgan iqtibosga

shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, G‘arb adabiy estetikasi formatida yangi tipdagi majoz va metaforalarga boy o‘zbek hikoyachiligi paydo bo‘layozdi. Bularni quyidagi formatda tasniflash o‘rinli:

1. Hikoya qa'tidagi “zulmat ichra nur” izlayotgan qahramon aslida kim? U ham o‘zimizning yon atrofimizdagi sizni bizga o‘xshagan adashgan Allohning bandasi.

2. Totalitar kayfiyat tig‘izligidan sira qochib qutula olmagan odamlar taqdiri, paxta yakkahokimligi, xo‘jalik ishlariga mukkasidan ketgan odamlar qiyofasi, ularni majburlagan sobiq ittifoq mafkurasi, bayroqdorlaridir.

3. Ramzlarga qachon san'at burkanadi. Qaysiki davrda unga imkon bermagan muhit va sharoit bosimi kuchli bo‘lsa, san'at o‘z-o‘zidan yangi bir qobiq hosil qiladi.

4. Muhabbat haqidagi qator hikoyalarda ham G‘arb estetikasining tasvir predmeti sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi.

5. Qaysiki zamon yozuvchisi o‘zidan oldingilarning yo‘lidan yurib, o‘ziga yangi yo‘l ochmasa, kutilgan natijaga aslo erisha olmaydi.

Bularning barchasida mahorat, mehnat va tajriba, ilhom birligi kuzatilmasa, yozuvchilar o‘z davridan boshqa bir davrga so‘z olib o‘ta olmaydi. Buni sobiq ittifoq timsolida anglab olganimizga ancha bo‘ldi. Demak, inson va jamiyat, tartibotlari, shaxsning butunligi, odamlarning o‘y-xayollari, barchasi yozuvchi botinidagi umuminsoniy g‘oyalarning avj pardalarda kuylanishiga xizmat qilinishi muhim ekanligi yaqol ayon bo‘layotir. Insonki bor, adashadi, yolg‘izligidan iztirobga tushadi, Kafka kabi o‘ylari murakkab tug‘yonlarga aylanadi. Hech bir zamon yozuvchisi buni inkor qilolmasa kerak.

“XX asrga kelib inson mohiyatini o‘rganish chuqurlashdi, hayotning mazmuni haqidagi xulosalar an'anaviy qoliplarga, an'anaviy tasavvurlarga sig‘may qoldi. Natijada insonning murakkab ruhiyatiga mos ravishda badiiy tafakkurning ifoda usullari ham murakkablashdi, adabiyot rangbaranglashdi. Tom ma'nodagi haqiqiy adabiyot endi bevosita o‘quvchilar talabi bilan emas, balki yangi davr tafakkuri talablaridan kelib chiqib insonni tahlil qilishga kirishdi. Bu esa adabiyotni ma'lum ma'noda keng o‘quvchilar ommasidan ajratib qo‘ydi. Lekin badiiy tafakkurdagi izlanishlar o‘zining yuksak maqomiga erishdi. O‘zlarini xoh simvolist, xoh syurealist, xoh dadaist, xoh ultraist deb atamasin, baribir bu adabiy oqimlar yaratgan asarlar inson va uning qalbi haqidadir. XX asr jahon adabiyotidagi barcha yangi oqimlar, uslubiy izlanishlar, eng avvalo, fransuz adabiyotida yuz berdiki, bu adabiyot tom ma'nodagi yangi badiiy tafakkurning markazi bo‘lib qoldi”, – deya yozadi yozuvchi va munaqid Nazar Eshonqul. Hayotning o‘ziga xos tomonlarini qayta kashf etish, muammoning ichki mohiyatini anglashga yordam beradi. Dunyo adabiyotida har qanday obraz o‘z-o‘zidan sayqallanib, rivojlanib, xarakter darajasiga ko‘tarilgan emas, negaki, insonni chuqur o‘rganish, uning orzu-umidlarini kashf qilish, muhabbat va matonatini anglash uchun katta tafakkur va ijtimoiy sohalardan boxabar bo‘lishlik kerak. Mana shu kuchli potensial harakatlar badiiy tafakkurda benihoya

katta burilishlarga zamin yaaratib berishi mumkin. Hikoya janrida ham kuzatilayotgan kichik hajmda kata ma'noni ifodalash badiiy mahoratning nechog'li o'zlashtirilgani bilan bog'liq ijodiy jarayon ekanligi ayonlashadi.

Frans Kafka – ijodiy dunyosi G'arb badiiy tafakkurining ajralmas halqasiga evrildi. Chunki Kafka va Kamyu, M.Prust, Joyslar avlodida insonning baxtli bo'lishi uchun nimalar qilish kerak degan azaliy hayqirigi yaqqol ko'rinadi. Haqiqatdan ham, inson baxtli yashashi uchun nimalar qilmog'i kerak? Jamiyat qattiq rejim bilan odamlarni ushlab, ularning muteligi, erkini olib qo'ysa? Jamiyatga tafakkur yuritadigan odam emas, qaerga yo'naltirsa o'sha yerga qarab yuradigan odam kerak dagan qaltis g'oyalari ish bera boshladi. Stalin va Gitler ham ana shu konsepsiyani ilgari surdi.

“Adabiyotshunoslikda tavsifiylik hikoya janri talablariga muvofiq kelsa, keskin konfliktlilik novella janri tabiatidan kelib chiqadi. Chunonchi, hikoyadagi ifoda, “turg'un” ma'no kishi ruhiyatiga soniyalar ichida emas, balki asta-sekinlik bilan ta'sir qiladi. Novella esa voqeada ham, ma'noda ham keskinlikni yuzaga keltiradi hamda kutilmagan yechim orqali kitobxon qalbini larzaga soladi. Bu holat sezgilarimizga shu onning o'zidayoq qattiq ta'sir qiladi”. Darhaqiqat, XX asr o'zbek hikoyaligida janriy-kompozision yaxlitlik tamoyili asosida qayta taraqqiy etdi. Inson shaxsiga katta umid va ishonch paydo qilishga harchand urinishmasin, sobiq ittifoq davrining tashviqot quroliga aylangan yozuvchilar haqqoniy va shedevr asarlarni unchalik ko'p yarata olmadilar. 70-yillarga kelib, erkinlik shabadasi biroz esa boshlagan davrlarda novella ham boshqa janrlar singari haqqoniy hayot manzarasini ifoda etishga o'zida katta kuch va imon topdi. Yozuvchilarning aksariyati davrini yashab, bu hayotdan chinga qovushgan pallalariga to'g'ri kelgandi. Buning natijasida 90-yillar boshiga kelib, istiqloq qo'lga kiritilganidan keyin haqiqiy taraqqiyot davri boshlandi. Ayni paytda, jahonbop asarlar yozish tardisiyasi yo'lga qo'yildi. Sh.Xolmirzaevning 80-90 yillarda yozgan hikoya ruhidagi asarlarda davrning shiddatli oqimi va odamlarning kayfiyati, ozodlikka bo'lgan ichki munosabati qabarib ko'rina boshlandi.

Prof. M.Qo'chqarova yozishicha: “Hozirgi o'zbek nasrida qadim mif va afsonalarga kuchli ehtiyoj paydo bo'lgan. Muayyan ijodkor tomonidan yaratilgan sub'ektiv mif yoki mifologik tafakkur asosida shakllangan badiiy asar qurilmasi, mifologemalar ishtiroki, syujet va motivlari hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida yangi adabiy yo'nalish – neomif nasrni tashkil etmoqda. XX asr ijodkorlari yaratgan neomif nasr mazmun va mohiyat jihatidan aynan miflarni takrorlash emas, mifologik syujetga, obrazga (mifologemalarga) yangicha nigoh tashlashdir”. Keltirilgan iqtibosdan shuni his etish mumkinki, Frans Kafka, Kamyu, Joysning qator hikoyalarida ramziy-majoziy talqin ustuvorligi benihoya katta masshtabda so'z yuritish imkonini beradi.

Xulosa. Umuman olganda, hikoya haqida gapirishdan uni yozish mashaqati qanchalik og'ir ish ekanligini nazariy-ilmiy adabiyotlar o'z isbotini berib turibdi. Inson muhitda va azobu uqubat iskanjasida ulg'ayib, voyaga yetarkan, yozuvchiga buni

tasvirlash oson bo‘lmaydi. Chunki inson har bir davr nuqtai nazarida yolg‘iz o‘ziningina taqdiri bilan hisoblashib yashaydi. Anglash, yo‘qotishlar, topishlar, uqubatlar girdobida toplangan xarakter asta-sekinlik bilan hayot tarzini rivojlantiradi. Kafkalar avlodi ana shu balandlikni tiklay oldilar. Ularni tushunib yetish 80-yildan keyin sodir bo‘lmoqda. G‘arb adabiy tafakkuri shu zaylda yangi o‘zbek hikoyachiligini boshlab berdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Joyce, J. *Ulysses*. New York: Random House, 1922.
2. Joyce, J. *A Portrait of the Artist as a Young Man*. New York: B.W. Huebsch, 1916.
3. Kafka, F. *The Trial*. Leipzig: Verlag Die Schmiede, 1925.
4. Kafka, F. *The Metamorphosis*. Berlin: Kurt Wolff Verlag, 1915.
5. Tasso, T. *Il Goffredo, ovvero Gerusalemme liberata*. 1594.
6. Camus, A. *The Myth of Sisyphus*. Paris: Gallimard, 1942.
7. Eshonqul, N. *Modern o‘zbek nasrida inson konsepsiyasi*. Toshkent: Fan, 2010.
8. Karimov, B. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent: Akademnashr, 2005.
9. Qo‘chqarova, M. *Neomif nasr va zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi*. Toshkent: Sharq, 2015.
10. Xolmirzaev, Sh. *O‘zbek hikoyachiligi va G‘arb badiiy tafakkuri*. Toshkent: Adabiyot, 2012.

